



## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHNING TURLARI

**Kalandarov Djalaladdin Davronovich**

Xorazm viloyati prokurorining katta yordamchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8232643>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> August 2023

Accepted: 09<sup>th</sup> August 2023

Online: 10<sup>th</sup> August 2023

### KEY WORDS

*Ayb, voyaga yetmagan, jinoyat, javobgarlik, jazo, huquqbuzarlik, ijtimoiy xavflilik, xulq-atvor, profilaktika.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning turlariga doir masalalar tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasining turlariga doir masalalar tahlil etish jarayonida "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ma'zmun va mohiyati ham ochib berilgan.*

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishning kriminologik muammolarini o'rganish voyaga yetmaganlar ijtimoiy kategoriyasining mazmuni, uning shakllanishi, rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni, voyaga yetmaganlarning ideallari, qadriyatlari, mo'ljallari va faol hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillar, yosh xususi-yatlari va hokazolarni tahlil qilish bilan bog'liq ayrim umumiy metodologik qoidalarni ko'rib chiqishni taqozo etadi.

2010-yil 29-sentyabrda qabul qilingan "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida, *voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi* deganda, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. *Yakka tartibdagi profilaktika ishi* deb, qonun chiqaruvchi shunday ta'rif beradi: ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat Qonunda ko'rsatilishicha yakka tartibdagi profilaktika ishi, shuningdek, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlarning maqsadi - huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishdir. Shuningdek, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash bu



yakka tartibdagi profilaktika ishini taqazo etishi tushunilishi, ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora tadbirlarning maqsadi esa, ularni bartaraf etishga qaratilishi lozim.

Aytish lozimki, qonunda ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar deganda, aniq nimalar nazarda tutilishi keltirilmagan. Qonunda voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar keltirilgan va ushbu tizimiga quyidagilar kiradi: voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar; ichki ishlar organlari; ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari; vasiylik va homiylik organlari;

sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari; mehnat organlari.

Demak, ushbu subyektlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash bilan birgalikda ularni bartaraf etish uchun ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Lekin, amalda profilaktika, xususan, yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilmogda. Qonunda ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat va boshqa fuqarolik organ va muassasalari ham huquqbuzarliklar bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan birga ularning sabablarini aniqlashlari ham vakolat doirasiga kiritilgan.

Bizningcha, ushbu organ va muassasalarning vazifasi huquqbuzarliklar sabab va omillarini aniqlashga emas, balki ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Ushbu chora-tadbirlar, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga sabab bo'layotgan omillar, ya'ni iqtisodiy-ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, tashkiliy-ma'muriy sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish zamirida amalga oshirilishi lozim. Ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan ma'lum biridagi kamchilik, boshqasidagi yutuqlarni inkor etadi. Masalan, dunyoda iqtisodiy farovonlikka erishgan davlatlarda ham jinoyatchilik, xususan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi mavjud. Bu o'z navbatida kamchilik, psixologik yoki boshqaruv sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar mavjudigidan dalolat beradi. Ko'rinib turibdiki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining qanchalik samarali bo'lishi, ko'p jihatdan huquqbuzarlikka sabab bo'lgan omillar va sharoitlarni to'g'ri tahliliga bog'liq.

Shu o'rinda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiya haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2833-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyaning" Nizomi tasdiqlandi. Nizomga muvofiq, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mintaqaviy komissiyalari, tuman (shahar) idoralararo komissiyalari tashkil etildi. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish, voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish ushbu komissiyalarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hududiy komissiyalar o'z faoliyati bo'yicha yuqori turuvchi komissiyalarga hisobdor hisoblanib,



faoliyati to'g'risida har chorak yakunlari bo'yicha ularni xabardor qilib turadilar va hisobot berib boradilar.

Respublika komissiyasining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Respublika komissiyasining ishchi organi hisoblanadi. Hududiy komissiyalar rais (tuman (shahar), viloyat va Toshkent shahar hokimi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi), rais o'rinbosari va 10 — 18 nafar a'zosidan iborat tarkibda tuziladi. Respublika, mintaqaviy idoralararo komissiya asosan quyi turuvchi idoralararo komissiya faoliyatini nazorat qilib, muvofiqlashtirish borganligidan kelib chiqib, tuman (shahar) idoralararo komissiya faoliyatiga asosiy e'tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Yuqorida ta'kidlangan Nizomga muvofiq, tuman (shahar) idoralararo komissiyalar voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va tiklash, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, voyaga yetmaganlarni tarbiyalash, o'qitish, saqlash (parvarishlash) sharoitlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi muassasalarida voyaga yetmaganlar bilan muomalada bo'lish yuzasidan nazoratni tashkil etish davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va tashkilotlarning voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko'rilayotgan choralarni baholash, monitoring qilish va samaradorligini oshirish, tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni bartaraf etishda, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va bunga imkoniyat yaratayotgan shart-sharoitlarni aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarning hamkorligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid axborotni to'plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan yoxud ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish va ularning maishiy yashash sharoitini yaxshilashda yordam ko'rsatish, davlat yordamiga muhtoj bo'lgan boshqa voyaga yetmaganlarni joylashtirish shakllarini aniqlashda ko'maklashish, shuningdek voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga doir qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ishlarni amalga oshirish orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, mehnat, madaniyat, sport, ichki ishlar organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning bolalarni tarbiyalash, ularni joylashtirish, salomatligini mustahkamlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi;



tumanlar (shaharlar) hududidagi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi, ularning keltirib chiqaruvchi sabablari va sharoitlarini bartaraf etish, bolalarni joylashtirish, shuningdek ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

davlat va jamoat yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlash va hisobga olish tadbirlarini amalga oshiradi.

So'nggi yillarda axborot-texnologiyasi, media-kommunikatsiyalar sohasidagi keskin o'zgarishlar, voyaga yetmaganlar turmush tarzida: alkogol mahsulotlarini, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilishi ularning jamiyat bilan mutanosibligiga ta'sir etmasdan qo'ymaydi. Voyaga yetmaganni huquqbuzarlik sodir etishga undovchi turli axborotlar alohida diqqatga sazovordir. Voyaga yetmaganlarning turli axborotlar ta'sirida huquqbuzarlik sodir etish xavfidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu holat qonun hujjatlarida aniq o'z ifodasini topishi lozim. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli qaroriga 3-ilova qilingan "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar to'g'risida"gi Nizomning bir qancha bandlariga boshqa huquqiy ta'sir choralari bilan birga, "voyaga yetmaganlarning ma'naviy hamda jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborot xurujlaridan himoya qilish, voyaga yetmaganlarning alkogolizm, giyohvandlikka ruju qo'yishiga qarshi kurashish" jumlasini kiritish lozim.

BMTning 1990-yil 14-dekabrda qabul qilingan, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini oldini olishga qaratilgan Ar-Riyod (45/112) rezolutsiyasida<sup>1</sup>, umumiy yo'nalishdagi chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan. Unda oila va undagi munosabatlarning voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklarga qo'l urishida muhim rol tutishi va davlatlar huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirar ekan, bu borada befarq bo'lmaslikka chaqiradi.

Haqiqatdan ham, bu o'rinda oilaning, ota-onaning roli muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 40 foizini voyaga yetmaganlar tashkil etishini hisobga olsak, bu jarayonda ota-ona, mahalla tizimi, ta'lim muassasalari, umuman, keng jamoatchilik, barchamizning zimmamizda ulkan mas'uliyat yuklaydi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi tomonidan mamlakatimizning turli hududlarida o'tkazilayotgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklar sodir qilinishining asosiy sabablaridan biri oiladagi nosog'lom muhit<sup>2</sup> ekanligi fikrimizni to'la qo'llab-quvvatlaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, huquqbuzarlik sodir qilgan yoshlarning 62,2 foizi bo'sh vaqtlarini ko'chada, bemaqsad va nazoratsiz o'tkazar ekan. Voyaga yetmaganlar hamda yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olishda ota-onalarning ishtiroki tahlil etilganda, ularning

---

<sup>1</sup> United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines). Adopted and proclaimed by General Assembly resolution 45/112 of 14 December 1990. // URL: <https://www.ohchr.org/en/ProfessionalInterest/Pages/PreventionOfJuvenileDelinquency.aspx>. (murojaat etilgan sana: 16.03.2021).

<sup>2</sup> Xalq so'zi (online). URL: <https://xs.uz/uz/post/voyaga-etmaganlar-tarbiyasi-va-masuliyat> (murojaat etilgan sana: 16.03.2021).



42,8 foizi farzandlari tarbiyasiga e'tiborsiz ekani, 48,7 foizi bolalarini yetarli darajada tarbiyalay olmasliklari aniqlangan.

Aytish kerakki, ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati, voyaga yetmagan shaxsning qay darajada huquqbuzarlikka qo'l urishi yoki urmaslik masalasini bashorat qilishda birlamchi asos hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikamizda jinoyat va huquqbuzarlikka qo'l urayotgan bolalar, asosan, notinch, nizoli, nosog'lom oilalarda voyaga yetayotganini ko'rsatmoqda. Oiladagi bunday muhitga moslashgan yoki moddiy ta'minotga muhtoj bola boshqalar bilan ko'p janjallashishi, natijada o'g'rilik, bezorilik kabi jinoyatlarga qo'l urish holatlari uchramoqda. Mutaxassislar ota-onaning bolani tarbiyalash jarayonida unga nisbatan axloqiy va boshqa munosabatlarga ko'ra, to'rt kategoriyaga bo'lishni taklif etishadi<sup>3</sup>. Jumladan, tarbiya berish bilan birgalikda, bolani doim qo'llab-quvvatlaydigan, bolaga nisbatan iliq munosabatda bo'ladigan, bolaga o'rnak bo'ladigan xulq-atvoriga ega, bola oldida obro'ga ega ota-onalik; bolaga nisbatan iliq va muloyim munosabatda bo'ladigan va unga nisbatan hurmat shakllantirgan, lekin tarbiya va nazoratda kamchiliklar borligi bilan xarakterlanadigan ota-onalik; qattiq tartib-intizomga tayangan, ba'zida og'ir xulq-atvor va o'ziga xos murakkabliklarga asoslangan tarbiya bilan xarakterlanadigan ota-onalik; bolaga tartib va intizom jihatidan nazoratga olmaydigan. Talabchanlik va javobgarlikni bo'yniga olmaydigan beparvo ota-onalik.

Psixolog tadqiqotchi, Laura. A. Berkning tadqiqotlariga ko'ra, bolaga o'rnak bo'ladigan xulq-atvoriga ega, uning oldida "obro'"ga ega ota-onaning tarbiyaviy yondashuv uslubi bola uchun eng samaralisi bo'lishi mumkin<sup>4</sup>. Aksincha, psixolog Diana Baumrindning fikricha, qattiq tartib-intizomga asoslangan, avtoritar xarakterdagi tarbiyaviy muhit bola ulg'ayish davrida muhim, chunki bola bu davrda shakllantirgan xulq-atvor butun umr saqlanib qoladi<sup>5</sup>. Haqiqatdan ham ushbu fikr asosli, chunki endi ulg'ayib kelayotgan bola ko'proq taqlid asosida o'rganishga, olamni shu asnoda anglashga moyil bo'ladi. Ushbu davrda bola qanchalik to'g'ri tarbiyalansa, nazorat ostida bo'lsa, uning kelajakda huquqbuzarlikka qo'l urish ehtimoli kamroq bo'ladi.

Bola va ota-ona o'rtasidagi munosabat qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi masalasi juda muhim hisoblanadi. Nazoratning qancha pastligi bolaning ota-onasi bilan munosabatlarining yomon ahvolda ekanligidan dalolat beradi. Bu kabi bolalar o'zining xatti-harakatlarini ota-onasi bilan deyarli muhokama qilishmaydi.

Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, o'smirning o'ziga yaqin, yaxshi aloqada bo'lgan jinoyatchi aka yoki opasi bo'lishi uning huquqbuzarlikka moyilligini oshirishi mumkin. Amaliyotda huquqbuzar uka yoki singilning akasi yoki opasining jinoyatchi bo'lib shakllanishida ta'sir qilish holatlari kam holatlarda uchraydi. Aksincha, aka yoki opaning jinoyatchi bo'lishi uka yoki singilning jinoyatchi bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ushbu holatda aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi aloqalarning qay darajada o'rnatilganligiga bog'liq.

<sup>3</sup> . Bi X, Yang Y, Li H, Wang M, Zhang W and Deater-Deckard K (2018) Parenting Styles and Parent-Adolescent Relationships: The Mediating Roles of Behavioral Autonomy and Parental Authority. *Front. Psychol.* 9:2187. doi:10.3389/fpsyg.2018.02187

<sup>4</sup> Berk, Laura E. (2014). *Development through the lifespan* (Sixth ed.). Boston.

<sup>5</sup> Baumrind, D. (1971). Current patterns of parental authority. *Developmental Psychology*, 4 (1, Pt.2), 1-103. URL: <https://doi.org/10.1037/h0030372>.



Masalan, aka jinoyatchi bo'lsada, lekin uka bilan adovatda ruhida bo'lsa, uning ukasining xulq-atvoriga ta'siri bo'lmasligi ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin<sup>6</sup>.

Demak, oila va oilaviy munosabatlar bolaning xulq-atvoriga ta'siri kuchli ekan, bu o'rinda eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan oilaviy ajrashishlarning voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga qanchalik ta'siri bor ekanligini aytib o'tishimiz lozim. Ba'zan bu jarayonga shu darajada e'tiborsiz munosabatda bo'lamizki, atrofimizda hatto turmush qurmay turib ajrashish haqida reja qilayotgan yoshlarni, eng achinarlisi, xuddi shunday ota-onalarni uchratishimiz mumkin bo'lib qolgan. Yurtimizda 2020-yilda 28233 ta oila ajrashganligini hisobga olsak<sup>7</sup>, bu naqadar jiddiy muammo ekanligini tushunishimiz mumkin. Ajrashishlarning sababi sifatida iqtisodiy qiyinchiliklar, zo'ravonlik va tazyiqlar, oilaviy hayotga tayyor emasligi kabi holatlar keltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda 2019-yilning o'zida 16-17 yoshda turmush qurgan ayollar soni 3001 tani tashkil qilgan<sup>8</sup>. Ularning ushbu yoshda turmushga ijtimoiy, hamda psixologik, fiziologik jihatdan tayyor emasligi oilada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qodir emasliklarini ko'rsatadi. Ko'p holatlarda ajrimlar yosh oilalar bilan sodir bo'layotganligi, bolaning ko'p holatlarda ona bilan yolg'iz qolishi, onaning farzand tarbiyasidagi vazifasini karrasiga qiyinlashishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotchi olim Steinbergning "O'smirlik" nomli asarida qayd etilishicha, yolg'iz ota yoki ona bilan yashaydigan bolalar, ota-ona bilan birgalikda yashaydigan bolalarga qaraganda qashshoq yashashga va ko'p holatlarda ularning huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqoriroq bo'lishi ko'rsatiladi<sup>9</sup>. Biroq, Graham va Bowling tadqiqotlarida keltirilishicha, yolg'iz ona yoki ota bilan birgalikda yashaydigan bola o'rtasida oilaviy munosabatlar yaxshi o'rnatiladi<sup>10</sup>. Bunda ota-ona va bola emas, ona-bola yoki ota-bola o'ziga xos sxemasi shakllanadi. Shuningdek, bolaning xatti-harakatlarini nazorat qilish yaxshi yo'lga qo'yiladi hamda uning huquqbuzarlikka moyilligi juda past darajada bo'ladi. Yuqoridagi ikki fikr ham ma'lum ilmiy va amaliy o'rganishlarga asoslangan, huquqbuzarlik hamda jinoyatchilik bugungi kunda ko'proq ijtimoiy hodisa sifatida gavdalanayotganligini hisobga olsak, bolani tog'ri tarbiyalash bilan birgalikda uning barkamol bo'lishi uchun ijtimoiy ta'minlanganligi juda muhim. Ota-ona bilan birgalikda yashaydigan bolaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy jihatdan ta'minlanganligi boshqalarga nisbatan yaxshi holatda bo'ladi. Shuningdek, qachonki o'smirlar nazoratsiz qoldirilsa, ularning g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega o'smirlar guruhi ta'siriga tushib qolish xavfi ortadi.

Ko'rinib turibdiki, ajrashish bu shunchaki, birgalikda yashayotgan ikki insonning alohida-alohida yashashigina emas, balki hayotga endi kirib kelayotgan bolaning taqdirini keskin o'zgartirib yuboradigan salbiy ijtimoiy hodisa desak, mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>6</sup> Bartol, Curt & Bartol, Anne (2009). *Juvenile Delinquency and Antisocial Behavior: A Developmental Perspective*, 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

<sup>7</sup> Nikohdan ajralishlar soni to'g'risida ma'lumot, 08/02/2021, URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> (murojaat etilgan sana: 28. 03. 2021).

<sup>8</sup> Erta turmush, erta tug'riq, va oilaviy ajrimlar soni to'g'risida ma'lumot, 03/11/2020, URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> (murojaat etilgan sana: 28. 03. 2021).

<sup>9</sup> Steinberg L. (2008). *Adolescence* (8th ed.). New York: McGraw-Hill.

<sup>10</sup> Graham, J. & Bowling, B. (1995). *Young People and Crime*, Home Office Research Study No. 145, London: Home Office.



Ajrashishlardan so'ng, bolalarning ijtimoiy, ruhiy ahvoli qanchalik o'rganilayapti? qanchalik huquqiy taminlangan? degan kabi masalalar hali hamon dolzarb. Birgina otaning farzandiga aliment pulini to'lashdan qochayotganligi, bolani o'z holiga tashlab qo'yish bilan barobar. Albatta, iqtisodiy yetishmovchiliklar jamiyatda jinoyatlarni ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida gavdalandiradi. O'smirlar o'rtasida bosqinchilik, o'g'rilik kabi jinoyatlarning kuchayishi ham aynan iqtisodiy yetishmovchiliklar, ularni o'z vaqtida tarbiyasi, kamolga yetishishida ma'suliyatni o'z bo'yniga olmagan ota-onalar sababdir.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligida oila, undagi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy muhit, oilaviy ajrimlar, umuman, ota-ona va bola bilan bog'liq oiladagi barcha munosabatlar muhim o'rin tutar ekan, ushbu vaziyatda yuzaga keladigan muammolar o'ziga xos yechimlarni talab qiladi. Birinchidan, oilaviy ajrimlarni kamaytirish, ajrimlar yuz bergan taqdirda ham ularning "qurboni" bo'lgan bolalarni ijtimoiy muhofaza etishni ta'minlash. Bunda, birinchi navbatda oilaviy ajrimlar natijasida yetim qolgan voyaga yetmaganlarni ish bilan ta'minlash, imtiyozlar berish. Ikkinchidan, nizoli vaziyatdagi oilalarga psixologik, jumladan, huquqiy yordam ko'rsatish: qonun oldida ota-onaning farzand oldidagi, farzandning ota-ona oldidagi burch va majburiyatlarini tushuntirish, bundan tashqari voyaga yetmaganlarning huquqiy savodxonligini oshirish. Sababi huquqiy savodxonlikning pastligi ham voyaga yetmaganning huquqbuzarlikka qo'l urishishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu maqsadda ya'ni oiladagi nizolarni o'rganuvchi, huquqiy jihatdan baholay oluvchi alohida shaxslar faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- voyaga yetmaganlar, shuningdek, ularning oilasi bilan profilaktik suhbat (yakka tartibdagi profilaktika) olib borishni ichki ishlar tizimidan chiqarish ya'ni bu ish bilan ichki ishlar xodimi emas, balki yuridik hamda psixologik ma'lumot hamda yetarlicha ko'nikmaga ega shaxslarga topshirish lozim;

- ajrashishlardan so'ng voyaga yetmagan farzand ota yoki ona bilan qolishi yoki qolmasligidan qat'iy nazar, voyaga yetmagan nazoratsiz qolganda yoki huquqbuzarlik sodir etganda, ota va onani birdek javobgarlikka tortish masalalarini ko'rish lozim.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat muassasalarning hamkorligini ta'minlash masalasidir. Bunda hudud, mahalla, maktab, oila (HMMO) kesimida ijtimoiy muhofaza tizimini shakllantirish. Xususan,

- voyaga yetmagan huquqbuzarlar va ularning oilalari bilan ishlashda maxsus oldini olishdan, umumiy oldini olish rejimida ishlash. Jamiyatda "huquqbuzar oila" yoki "huquqbuzar farzand" sifatida baholanish voyaga yetmaganlarga psixologik tomondan aks ta'siri yuqori bo'lish mumkin;

- ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirish maqsadida mahalla va maktab hamkorligida fond tashkil etish hamda ushbu faoliyatga vasiylik hamda homiylik vakillarini jalb qilish;

Ushbu masalada tadqiqotchilar tomonidan, oila, mahalla hamda ta'lim maskanlarning birgalikda ishlash samaradorligini oshirish maqsadida, "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi"



hamkorlik tizimi, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy ongini tarbiylash mezonlarini shakllantirishda media texnologiyalaridan keng foydalanish amaliy takliflar ilgari surilgan<sup>11</sup>.

- sog'liqni saqlash muassasalarining bevosita "nizoli muhit"dagi oilalar bilan ishlashini bevosita yo'lga qo'yish: "huquqiy terapiya" amalga oshirilishi, agar oiladagi holat ijobiy tomonga o'zgarmasa, voyaga yetmagan farzandlari ijtimoiy himoya markazlariga joylashtirish masalasini hal etish;

- maktab bilan mehnat markazlari o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi. Hamkorlikda voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish masalasini hal qilish, nafaqat haq to'lanadigan, balki qiziqishlariga ko'ra kasbiy ko'nikma beradigan amaliyotga jalb qilish;

- ta'lim muassasasi, mehnat organlari, sog'liqni saqlash muassasalari oilalarni hamkorlikka jalb etib, o'smirlarning "ijtimoiy foydali vaqt" dasturini ishlab chiqish. Bu jarayonda OAV hamda media markazlari bilan hamkorlikda ishlar tashkil etish;

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi hamda jinoyatchiligiga qarshi kurashishda ma'lum bir belgilangan hudud (kompakt hududlar) doirasida yaratilgan ijtimoiy va madaniy maqsadlarga yo'naltirilgan sharoitlar ancha samara berishi tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan<sup>12</sup>.

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan boshqa muassasalar (ta'lim, sog'liqni saqlash, mahalla, vasiylik va homiylik tashkilotlari) o'rtasida axborot almashinuvini jadallashtirish: profilaktik ishlarni amalga oshirish jarayonida kriminogen hudud hamda tarbiyaviy-axloqiy muhiti buzilgan oilalarni aniqlash, bunga sabab bo'lgan sharoit va omillarni tahlil etish.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga qarshi kurashda davlat va jamiyatning vazifasi, voyaga yetmaganlar hamda huquqbuzarlik yoki jinoyatchilik o'rtasida "devor" qo'yish emas, balki huquqbuzarlikka qarshi o'ziga xos immunitet shakllantirishda ko'maklashishi lozim.

Xulosa o'rnida yana bir muhim jihatni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olishda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlardan yana biri, bu – voyaga yetmaganning bo'sh vaqtini samarali ishga yo'naltirishdir. Bunda ularni ish bilan ta'minlash, to'garaklarga jalb etish, ma'rifiy-ijodiy tadbirlarni tashkil etish lozim hisoblanadi. Albatta, bularning barchasi aniq dastur va loyihalar asosida tashkil etilishi, moliyaviy asosga ega bo'lishi lozim. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning tashabbusi asosida ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus shular jumlasidandir.

<sup>11</sup> Д.Давронова. Оилада вояга етмаган болаларнинг ижтимоий онгини тарбиялаш тизимини ривожлантириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация.; - Илмий раҳбар: Айниса Мусурманова, педагогика фанлари доктори, профессор. - Самарқанд - 2018

<sup>12</sup> Alexander S. v. Boyd, 876 F. Supp. 773, 794 (D.S.C. 1995) (describing expert testimony that decentralized alternative facilities are more effective at reducing recidivism); Abt assoc., inc., office of juvenile justice & delinquency prevention, conditions of confinement: juvenile detention and corrections facilities 68 (1994), available at [http://www.ojjdp.ncjrs.org/publications/dc\\_facilities.html](http://www.ojjdp.ncjrs.org/publications/dc_facilities.html) (recommending that juvenile facilities not maintain dormitories with eleven or more youths).